

ABDULLA ORIPOVNING SHE'RIYATGA MUNOSABATI XUSUSIDA*Nafosat Xaydarova**Xalqaro innovatsion universitet talabasi**Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o'qituvchisi*

Annotatsiya. Abdulla Oripov – o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, xalq shoiri, O'zbekiston Davlat madhiyasining muallifi. Uning she'riyati yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur, falsafiy mushohada va insoniy qadriyatlarni ulug'lash bilan ajralib turadi. Shoir ijodida ona yurt, tabiat, muhabbat, taqdir va hayot ma'nosi kabi mavzular keng yoritilgan. U o'z asarlarida nafis lirika bilan teran falsafani uyg'unlashtirib, oddiy so'zlar orqali chuqur ma'no ifodalashga erishgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, adabiyot, tafakkur, shoir, san'at, milliy meros.

Abstract. Abdulla Oripov is one of the major representatives of Uzbek literature, a people's poet, and the author of the National Anthem of Uzbekistan. His poetry is distinguished by high patriotism, national pride, philosophical observation, and glorification of human values. The poet's work widely covers topics such as the homeland, nature, love, fate, and the meaning of life. In his works, he combines elegant lyrics with deep philosophy, achieving deep meaning through simple words.

Keywords: poetry, literature, thought, poet, art, national heritage.

Adabiyot inson ruhining in'ikosi, she'riyat esa yurakdan kechgan his-tuyg'ularning ifodasi sifatida qaraladi. Shoir "Onajonim, she'riyat" asarida she'riyatni ona timsolida ulug'lab, uni inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlaydi. Ushbu she'r shoirning ijodga, san'atga bo'lgan yuksak sadoqati va hurmatini aks ettiradi.

She'riyat shoir uchun nafaqat ijodiy jarayon, balki hayotiy yo'ldosh sifatida tasvirlangan. Shoir uni o'zining eng yaqin do'sti, hamdami deb biladi:

"Hamdam bo'lding men bilan

Har qandayin kunlarda,

Yulduz bo'lding charog'on

Eng qorong'u tunlarda..." Ushbu satrlarda she'riyat insonning hayotdagi murakkab vaziyatlarda ham yo'l boshchi bo'lishi, uni eng og'ir damlarda ham qo'llab-quvvatlashi ta'kidlangan. She'r davomida shoir she'riyat orqali hayotning turfa ranglarini ko'rganini, do'stlar orttirganini va adabiyot bilan tanishib, ulug' siymolar ijodidan saboq olganini ifodalaydi.

Bundan tashqari, she'rda inson hayotidagi sinovlar, to'fonlar, dovullar haqida so'z yuritiladi. Shoir she'riyat bilan birga bu qiyinchiliklarni yengib o'tganini ta'kidlaydi:

"Esingdami, azizam,

*O'tdi qancha dovonlar,
O'tdi qancha to'fonlar,
O'tdi qancha yobonlar..."*

Bu misralar inson hayotidagi sinov va qiyinchiliklarga ishora qiladi. Shoir she'riyatni hayotining yo'lchi yulduzi sifatida ta'riflaydi, uni o'zining eng oliy baxti deb biladi.

She'r badiiy tasvir vositalari jihatidan juda boy bo'lib, unda quyidagi san'atlardan foydalanilgan. She'riyat "onajon" sifatida tasvirlanib, inson hayotining eng muqaddas va mehribon bo'lagi sifatida taqdim etilgan. Bu esa she'riyatning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi. Bu satrlar she'riyatning shoir hayotida ona kabi mehribon, tarbiyachi va yo'l ko'rsatuvchi ekanligini anglatadi.

She'rning har bandining oxirgi ikki satri bir xil bo'lib keladi:

*"Eng oliy baxtim mening,
Onajonim, she'riyat .
"Topgan toj-taxtim mening,*

Jonajonim, she'riyat". Bu takror she'rning ohangdorligini oshirib, she'riyatga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi. Ushbu takroriy jumlar shoirning she'riyatga bo'lgan sadoqati va fidoyiligini yanada yorqinroq aks ettiradi. She'riyatning eng yuksak martabalarga ko'tarilishi, unga toj-taxt sifatida qaralishi uning ulug'vorligini oshiradi:

"Topgan toj-taxtim mening,

Jonajonim, she'riyat". Bu satrlar orqali shoir she'riyatni inson ruhining eng ulug'ne'matlaridan biri sifatida talqin qiladi. Bu yerda mubolag'a orqali she'riyatga bo'lgan cheksiz hurmat va minnatdorchilik ifodalangan.

She'r nafaqat she'riyatga bag'ishlangan muhabbat izhori, balki inson hayoti, uning maqsadi va tafakkuri haqida chuqur falsafiy mushohadalarni ham o'z ichiga oladi. She'riyat inson hayotining eng og'ir damlarida ham unga hamroh bo'lishi, uni ruhlantirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

"Har yo'lin topdim lekin

Sen bilan yongan o'tda..." Bu satrlar shoirning hayotiy tajribalarini, uning she'riyat bilan bog'liq sadoqatini va bardoshini aks ettiradi. She'riyat inson hayotidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan kuch sifatida tasvirlangan.

She'rdagi yana bir muhim jihat – milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unligidir. Shoir Vatan, milliy meros va yurt haqida ham so'z yuritadi:

"Angladimki, olamda

Yurt tanho, Vatan tanho..." Ushbu satrlar she'riyat bilan bog'liq milliy qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Shoirning she'riyatga bo'lgan muhabbati uning Vatanga bo'lgan sadoqati bilan chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, “Onajonim, she’riyat” she’ri – inson va she’riyat o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikni ifodalovchi badiiy durdona. Unda she’riyatga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat, insonning ijodiy yuksalishi va ma’naviy olami yorqin ifoda etilgan. Ushbu ash’or she’riyatni inson hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatib, uning ruhiy yuksalish, ma’naviy poklanish va hayotdagi sinovlarni yengishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shoir she’riyatga bo‘lgan muhabbatini ona timsolida gavdalantirib, uni inson hayotining eng qimmatli boyligi sifatida tasvirlagan. Bu she’r insoniyatga, san’atga va ijodga bo‘lgan yuksak sadoqatni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, har bir she’riyat ixlosmandi uchun ilhom manbayi bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
2. Haqqulov I. Badiiy so‘z shukuhi. Toshkent: 1987.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
4. Sharq mumtoz poyetikasi H.Boltaboyev talqinida. Toshkent: 2009.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2008.